

**ORIENTAL UNIVERSITETI**

**“ZAMONAVIY ILM-FAN VA  
TA'LIMNING DOLZARB  
MASALALARI: MUAMMOLAR,  
VAZIFALAR VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI**

(Toshkent, 2025-yil 14-oktabr)

*To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning  
haqqoniyliги hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.*

**I qism**

**TOSHKENT – 2025**

“Zamonaviy ilm-fan va ta’limning dolzarb masalalari: muammolar, vazifalar va yechimlar” - xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. I qism. – Toshkent: Oriental universiteti, 2025. – 436 b.

**Mas’ul muharrir:**

Mamataxunov Nozimjon Azizovich – Oriental universiteti rektori

**Mas’ul muharrir o‘rinbosari:**

Nosirova Malika Anvarovna – Oriental universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori

**Maqolalarni to‘plovchi:**

Alimuxamedov Rixsitilla Abdurashidovich – Oriental universiteti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i

**Tahrir hay’ati:**

Rahmatova Gavhar Omonovna – “Tillar-1” kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Aminov Xayotjon Xalimjonovich – “Matematika va axborot texnologiyalari” kafedrasini mudiri, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Bobojonov Islombek Usmonaliyevich – “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasini mudiri, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Po‘latov Laziz Azamat o‘g‘li – “Jismoniy madaniyat” kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Sadikova Ra‘no Abdullayevna – “Biznes va boshqaruv” kafedrasini dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Karimova Shaxloxon G‘aniyevna – “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Nasirov Dilshod Xusnitdinovich – “Tillar-2” kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

Sotvoldiyev Sirojiddin Maxammaddin o‘g‘li – “Tillar-1” kafedrasini dotsenti v.b.

Mazkur to‘plam Oriental universiteti Kengashining 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ “dagi  
“\_\_\_”-son bayonnomasi bilan nashrga tavsifa etilgan.

*To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.*

# CHET TILLARINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA VA AUDIOVIZUALIZATSIYANING O‘RNI

**Mehriniso G‘ofurova,**

Oriental universiteti Tillar-2 kafedrası dotsenti

ORCID: 0009-0003-1796-7250

<https://zenodo.org/records/17339640>

**Abstract.** This article explores the role of multimedia and audiovisual methods in foreign language education. It argues that integrating sound, image, and context increases learner motivation and communicative competence compared to textbook-only approaches. Three ecosystems are examined: online platforms such as Duolingo, Babbel, and Memrise using microlearning and gamification YouTube pedagogy with captions, transcripts, and guided viewing tasks and Virtual Reality (VR) scenarios that reduce anxiety and enhance fluency. The paper suggests classroom integration through sequencing, learner production, and rubric-based feedback, while also addressing challenges like VR access, caption reliance, and ensuring inclusivity through digital hygiene and accessibility.

**Keywords:** *multimedia in foreign language teaching, audiovisual methods, communicative competence, YouTube pedagogy, VR for language learning, microlearning, gamification.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola chet tillarini o‘qitishda multimedia va audiovizual metodlarning o‘rnini o‘rganadi. Unda tovush, tasvir va kontekstni uyg‘unlashtirish, faqat darslikka asoslangan yondashuvlarga nisbatan, o‘quvchilar motivatsiyasi va kommunikativ kompetensiyasini oshirishi ta’kidlanadi. Uchta ekotizim tahlil qilinadi: mikro-o‘rganish va gamifikatsiyadan foydalanadigan Duolingo, Babbel va Memrise kabi onlayn platformalar, subtitrlar, transkriptlar va boshqariladigan tomosha topshiriqlari bilan YouTube pedagogikasi hamda tashvishlarni kamaytirib, ravonlikni oshiruvchi Virtual Reallik (VR) ssenariylari. Maqolada shuningdek, dars jarayonida bosqichma-bosqich integratsiya, o‘quvchi produktsiyasi va rubrikalar asosida baholash taklif etiladi. Shu bilan birga, VR dan foydalanish imkoniyati, subtitrlarga ortiqcha tayanish kabi muammolar va inklyuzivlikni ta’minlash chorasi sifatida raqamli gigiyena hamda qulayliklarga oid masalalar ham yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** *chet tilini o‘qitishda multimedia, audiovizual usullar, kommunikativ qobiliyat, YouTube pedagogikasi, til o‘rganish uchun VR, mikroo‘rganish, o‘yinlashtirish.*

Hozirgi globallashuv davrida chet tillarni samarali o‘rgatish uchun yangi metodlar talab etiladi. An’anaviy darslik va grammatika mashqlariga asoslangan yondashuvlar o‘quvchi motivatsiyasini doimiy ushlab turolmaydi. Shu sababli multimedia va audiovizual vositalarni ta’lim jarayoniga kiritish katta ahamiyat kasb etmoqda. Media tushunchasi keng bo‘lib, yozma (kitob, gazeta), ovozli (radio, audio yozuv) va tasviriy (rasm, video) vositalarni o‘z ichiga oladi. Multimedia esa matn, ovoz va tasvirni birlashtirib, o‘quvchiga interaktiv o‘rganish imkonini beradi. XX asrning ikkinchi

yarmidan boshlab audiovizual metod shakllanib, chet tillarini eshitish, ko‘rish va real vaziyatlar orqali o‘rgatishni maqsad qildi. Til faqat qoidalar yig‘indisi emas, balki tirik muloqot vositasidir. Uning mohiyati intonatsiya, mimika, imo-ishora va kontekst orqali namoyon bo‘ladi. Shuning uchun audiovizual metod o‘quvchiga nafaqat matn, balki tovush va tasvir orqali ham bilim beradi.

Audial vositalar til o‘rganishda muhim, chunki til eng avvalo tovush hodisasidir. Audio yozuvlar, radio, qo‘shiqlar va podkastlar turli talaffuz va intonatsiyalarni eshittiradi, tinglab tushunish va to‘g‘ri talaffuzni rivojlantiradi. Vizual vositalar – rasmlar, plakatlar, grafikalar, infografikalar – mavzuni tezroq idrok etish va eslab qolishni osonlashtiradi. Masalan, “Oziq-ovqat” mavzusida meva-sabzavot rasmlari samarali bo‘ladi. Videomateriallar esa eng kuchli vosita bo‘lib, film yoki lavhalar orqali nafaqat so‘z, balki madaniyat va ijtimoiy vaziyatlarni ham o‘rgatadi.

Onlayn platformalar audiovizual ma‘lumotni mikro-darslar ko‘rinishida taqdim etib, chet tilini samarali o‘rgatadi. Duolingo boshlang‘ich va o‘rta bosqich uchun leksika-grammatika asosini tez quradi, tinglash va o‘qishni mustahkamlaydi. Babel dialogik vaziyatlar va kundalik iboralarni mashq qildiradi, modul oxirida role-play imkonini beradi. O‘qituvchi darsni mustaqil mashqlar bilan uyg‘unlashtirishi zarur: audio-diktantlar tinglab tushunish va yozma ko‘nikmani kuchaytiradi, lug‘at klasterlash so‘z boyligini tizimlashtiradi, shadowing talaffuz va intonatsiyani mustahkamlaydi. YouTube esa autentik nutqni taqdim etib, turli formatlar orqali real muloqot muhitini yaratadi. Subtitr va transkriptlar eshitish-o‘qishni integratsiyalaydi, video uzunligi esa 2–20 daqiqa oralig‘ida moslashuvchan tanlanadi.

Videoni tanlashda bir nechta mezonlarga e‘tibor beriladi: daraja mosligi, leksik zichlik, audio sifati, mimika va gestlarning ko‘rinishi hamda subtitr ishonchliligi. Masalan, A2–B1 darajada sekin nutqli, ko‘p vizual tayanchli videolar maqsadga muvofiq, har 2–3 daqiqada 6–10 ta yangi so‘zdan oshmasligi lozim. O‘qitishda YouTube videolari uch bosqichda qo‘llanadi: tomoshadan oldin — sarlavha asosida taxmin va trigger-lugat, tomosha vaqtida — global va selektiv eshituv, stop-frame tahlil, tomoshadan so‘ng esa fikr almashuv va mashqlar.

Tomoshadan keyin dictogloss usuli qo‘llanib, qisqa parcha ikki marta tinglanadi va guruhda qayta tiklanadi. Role-play mashqlari ijodkorlik va nutqiy faollikni oshiradi, o‘quvchilar video vaziyatini sinfda ijro etadi. Yakunda micro-essay yoziladi, masalan: “Men bo‘lsam nima qilardim?” YouTube formatlari xilma-xil: explainer-kanallar grammatikani vizual metafora orqali, vlog va intervyular real mavzularni, shorts tezkor iboralarni, storytelling esa hikoyalar orqali lug‘atni o‘rgatadi. Muammolar – chalg‘ish, subtitrga tayanish, madaniy tafovutlar. Yechimlar – tomosha ro‘yxati, reklamasiz rejim, “delayed subtitles” va cultural notes. Baholash uchun listening log, self-rating va oylik vlog qo‘llaniladi. Shu tarzda platforma mashqlari va YouTube uyg‘unligi tinglab tushunish, lug‘at boyligi, talaffuz va madaniy kompetensiyani rivojlantiradi.

Chet tilini samarali o‘rganishda o‘qituvchilar an‘anaviy usullar bilan birga zamonaviy raqamli platformalar va audiovizual resurslardan foydalanishga intilmoqdalar. Bunday uyg‘unlik o‘quvchining til ko‘nikmalarini tezroq shakllantiradi, xotirada chuqurroq saqlashni ta‘minlaydi va bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash imkonini kengaytiradi. So‘nggi yillarda bu jarayonga Virtual Reallik (VR) texnologiyasi ham qo‘shilib, o‘quvchilarga yanada realistik, interaktiv va hissiy

jihatdan boy tajribani taqdim etmoqda. VR til o'rganishni sinfdan tashqaridagi vaziyatlarga maksimal darajada yaqinlashtiradi: foydalanuvchi 360° vizual sahnada tovush manbalarini joy, masofa va fon shovqinlari bilan birga idrok qiladi. Bu esa kontekstli o'rganishni kuchaytirib, muloqotga psixologik tayyorgarlik yaratadi. Masalan, VRda kafe sahnasida buyurtma berayotgan o'quvchi o'zini real vaziyatda his qilib, nutqini muhitga mos ravishda yo'naltirishga majbur bo'ladi.

VR orqali turli hayotiy ssenariylar mashq qilinadi: kafe yoki restoranda buyurtma berish, vokzal yoki aeroportda yo'l-yo'riq so'rash, do'konda narx va chegirma haqida ma'lumot olish, universitetda kutubxona qoidalari bilan tanishish yoki kasbiy vaziyatlarda suhbat va taqdimot o'tkazish. Bu mashqlar lingvistik bilim bilan birga madaniy va ijtimoiy jihatlarni ham qamrab oladi. VRning kuchli tomonlari orasida emotsional haqiqiylik muhim o'rin tutadi, chunki o'quvchilar xato qilishdan kamroq qo'rqib, nutqni erkinroq boshlaydilar. Tana xotirasi ham shakllanadi: o'quvchi eshitish bilan birga ko'rish va harakat orqali tilni idrok qiladi. Immersiv audio esa masofa va fon shovqinlari ostida so'zlarni ajratishni o'rgatadi, bu esa real hayotiy sharoitda foydali bo'ladi.

Biroq VRning ayrim cheklovlari mavjud. Uskunalar qimmat bo'lishi mumkin, buning yechimi sifatida umumiy laboratoriyalar yoki arzon cardboard headsetlardan foydalanish taklif etiladi. Kiberkasallikni kamaytirish uchun qisqa sessiyalar va "teleport" navigatsiyasi qo'llaniladi. Pedagogik kontent yetishmasligi muammosiga qarshi o'qituvchilar o'z ssenariylarini yozishi va 360° videolardan foydalanishi mumkin.

Baholash jarayonida chek-listlar samarali: salomlashish, buyurtma berish, qayta so'rash va xayrlashish kabi elementlar 0–2 ball bilan baholanadi. Shuningdek, VRdan keyingi re-telling mashqlari ravonlik va intonatsiyani aniqlashda yordam beradi, o'zini baholash esa o'quvchiga zaif tomonlarini ko'rsatadi. Haftalik dars rejalarida VR boshqa resurslar bilan uyg'unlashtiriladi platformalarda yangi iboralar o'rganish, YouTube roliklarini tomosha qilish, lug'at klasterlash va shadowing mashqlari, VR ssenariylari hamda real-play mashqlari orqali yakuniy integratsiya ta'minlanadi. Mustaqil o'quvchilar uchun esa qisqa kunlik platforma mashqlari, muntazam YouTube tomoshalari, haftalik VR tajribasi va o'z vlogini yozish tavsiya qilinadi.

O'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar quyidagilar:

- "ma'no → forma" tamoyili asosida avval vaziyat, keyin grammatik forma beriladi;

- ortiqcha yuklama oldini olish uchun video 6–8 daqiqa, lug'at 8–12 birlik va VR 5–7 daqiqa bilan cheklanadi;

- har blokda tinglash, ko'rish va gapirish elementlari bo'lishi shart. Xatolarni "issiqda" to'xtatmasdan, keyin "feedback sandwich" usulida tuzatish maqsadga muvofiq. Shuningdek, qiyinchilik gradasiyasi darajaga qarab oshiriladi: A2 da vizual tayanch, B1 da qisqa dialoglar, B2 da improvizatsiya, C1 da murakkab munozaralar.

Raqamli gigiyena va inklyuzivlik ham muhim. Darslarda reklamasiz rejim, vaqt cheklovi, ishonchli manbalar tanlanishi lozim. Past internet sharoitida oflayn yuklab olish yoki audio-only variantlar taqdim etilishi kerak. Baholashda rubrikalar qo'llanib, tinglab tushunish, talaffuz, ravonlik va interaktivlik mezonlari hisobga olinadi. Tayyor blok ssenariylar esa o'qituvchilarning ishini yengillashtiradi.

Umuman, platformalar, YouTube va VRni uyg'un qo'llash chet tilini samarali o'rgatadi. Platforma leksika va grammatikani beradi, YouTube autentik nutq va madaniyatni taqdim etadi, VR esa xavfsiz "real vaziyat"da qo'llash imkonini yaratadi. Produksiya va feedback bosqichlari orqali o'quvchilar nutqiy kompetensiya, talaffuz va madaniy ko'nikmalarni rivojlantiradilar.

Audiovizual metodlar - onlayn platformalar, YouTube va VR - chet tilini tovush, tasvir va kontekst orqali real muloqotga yaqinlashtiradi. Platformalar leksika-grammatika asosini tez quradi, YouTube autentik nutq va madaniy ko'nikmalarni taqdim etadi, VR esa 360° muhitda psixologik to'siqlarni kamaytiradi va jasoratni oshiradi. Shu bilan birga, platformalarda pragmatika yetarlicha yoritilmasligi, YouTube da chalg'ish va subtitrlarga tayanish, VRda esa uskuna va kontent muammolari mavjud. Bularni bosqichma-bosqich yuklama, aniq vazifalar va rubrikali baholash orqali yumshatish mumkin. Eng samarali yechim — ularni integratsiyalashgan haftalik rejada qo'llashdir. Natijada ta'lim multimodal, motivatsion va o'lchanadigan bo'ladi, o'quvchilar tinglab tushunish, talaffuz, lug'at va interaktivlik bo'yicha muntazam rivojlanadilar.

#### REFERENCES:

1. Abraham U. (2012). *Auditive Medien im Fremdsprachenunterricht*. Frankfurt am Main: Peter Lang Verlag. – 215.
2. Bartram M. (2010). *Learner Motivation and Real-world Tasks*. London: Oxford University Press. – 178.
3. Beatty K. (2003). *Teaching and Researching Computer-Assisted Language Learning*. Harlow: Pearson Education Limited. – 242.
4. Buckingham D. (2003). *Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture*. Cambridge: Polity Press. – 260.
5. Davies G., Otto S., Rüschoff, B. (2013). *CALL—Past, Present and Future*. Stuttgart: Klett Verlag. – 195.

## MUNDARIJA

### YALPI MAJLIS

Almaz Ülvi Binnatova. // MAQSUD ŞEYXZADƏ VƏ ONUN “QƏZƏL MÜLKÜNÜN SULTANI” KİTABININ TƏHLİLİ	4
Зоҳид Исломов. // КЎПТИЛЛИ ЛУҒАТЛАРДА ТАРЖИМА МАСАЛАСИ	10
Sezgin Demir. // GRAMMARING MODEL: DINAMİK BİR BECERİ ALANI OLARAK TÜRKÇE ÖĞRETİMİ	16
Матибаева Разия. // «МИНГ БИР КЕЧА» ЭРТАКЛАРИНИНГ ЎЗБЕКЧА ТАРЖИМАЛАРИДА МАДАНИЙ МОСЛАШУВ (АДАПТАЦИЯ) ВА УНИНГ ТАНҚИДИЙ ТАҲЛИЛИ	20
Faiq Qəzənfər oğlu Ələkbərli. // ELM VƏ TƏHSILIN YENILƏŞMƏSI PROSESINDƏ MILLI-MƏNƏVI DƏYƏRLƏRIN ƏNƏMIYYƏTI	24
Муротмусаев Комилжон. // СИНЕРГИЯ ТЕОРИЙ ЛИДЕРСТВА И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ	29
Демевов Ахан. // РОЛЬ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В БОЕВЫХ ИСКУССТВАХ	35
Насирова Малика. // “АЛ-МУФАССАЛ” АСАРИ ВА УНИНГ ТАРКИБИЙ ТУЗИЛИШИ	39
Ahmet Herş. // ISLAMIC FINANCE: THE MISMATCH BETWEEN OBJECTIVES AND PRACTICE—DEBT DOMINANCE AND LIMITED DEVELOPMENTAL IMPACT	43
Kasimova Sarvinoz. // DIALEKTOLOGIYA VA TILSHUNOSLIKDA SUN’IY INTELLEKTNING QO‘LLANISHI	48
Одинаев Наим. // ҚАРЛУҚ КАЛМАСИНИНГ ВАСФИ IX-XIII АСР АРАБИЙ ВА ФОРСИЙ МАНБАЛАРИДА	54
Selma Ozan Yujel. // TURK TILIDA QORA VA OQ RANG BILDIRUVCHI LEKSEMALARINING METAFORIK QO‘LLANILISHI	58
<b>BIRINCHI KENGASH. TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI</b>	62
Salima Rustamiy. // MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “ASOSU-L-BALOG‘A” LUG‘ATI XUSUSIYATLARI	62
Axmedova Dilfuza, Azimbayeva Nargiza. // FORS TILIDA PAYT ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI	66

Shirin Sharasulova. // O‘ZBEK TILIDA METAFORIK O‘XSHATISHLARNING SEMANTIK MAYDONLARI TADQIQI MASALALARIGA DOIR	70
İbrahim Kuş. // O‘ZBEKISTONDA ALIFBO O‘ZGARISHI VA LOTIN YAZUVINI O‘QITISHDA METODOLOGIK YONDASHUVLAR	75
E Hua-nan (俄华楠). // RESEARCH ON THE PRACTICE OF “PROMOTION OF MANDARIN” IN NORTHWEST CHINA	79
Muratxodjayeva Feruzaxon. // ANTROPOTSENTRIK PARADIGMADA KOGNITIV TILSHUNOSLIK NAZARIYASI	83
Ходжалепесова Индира. // МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ	88
Rasulova Munajat. // AN ANALYSIS OF THE EMERGENCE OF THE TERM “DICTIONARY” IN WORLD LINGUISTICS	91
Umurzakova Gulchexra. // TURLI TIZIMDAGI TILLARDA TAQLID SO‘ZLAR YORDAMIDA OLAMNING LISONIY MANZARASINI IFODALANISHI	94
Зикруллаева Хусния. // ФУНКЦИИ ТЕРМИНОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПЕРЕДАЧИ СМЫСЛА	99
G‘ofurova Mehriniso. // CHET TILLARINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA VA AUDIOVIZUALIZATSIYANING O‘RNI	103
Dilshod Nasirov. // MAIN FACTORS IN THE PROCESS OF TEACHING THE ENGLISH VOCABULARY	107
Ikromjonov Akmaljon. // MUBTADO VA XABAR SINTAKTIK BIRLIK SIFATIDA: ARAB TILSHUNOSLIGIDA TAHLIL	112
Шахманова Г., Исакова Г., Таңсықбай Ә. // ҚАЗАҚ ТІЛІН ҮЙРЕТУДЕ КӨРКЕМ МӘТІНДІ БЕЙІМДЕУ ПРИНЦИПТЕРІ: ТІЛДІК, МАЗМҰНДЫҚ ЖӘНЕ МӘДЕНИ АСПЕКТІЛЕР	117
Hagung Yudistira Utomo, Christine Manar. // “IF WE CAN’T MASTER ENGLISH, IT’S A SHAME”: MILLENNIAL UNIVERSITY STUDENTS’ IDENTITY AND INVESTMENT IN ACQUIRING ENGLISH	125
Pak Raissa, Orazakynkyzy Farida. // ADVANCING CHINESE LANGUAGE TEACHING THROUGH INNOVATIVE TECHNOLOGIES	133
التضاد وموقعه من البلاغة العربية // أ.د/ فالح محمد زكي عبد المجيد	137
Дустмуродов Маъруфжон. // “ДЕВОНУ ЛУҒАТИ-Т-ТУРК”ДАГИ АЙРИМ УНДОВЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ САҚЛАНИШ ҲОЛАТИ	142
أثر الخلاف اللغوي والتركيبى بين اللغات في ترجمة النص الأدبي // د.عبدالله حسن علي محمد محال ليوسف زيدان والأرض الخراب لإليوت نموذجًا	146
العوامل المؤثرة في الأدب // د. حسن نجار محمد	150